

“RAVZAT US-SAFO” ASARI MARKAZIY OSIYO XALQLARI TARIXINI O’RGANISHDAGI AHAMIYATI

Karimov Sherzod Shavkat o’g’li

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7145795>

Mirxond yozgan asarning to’liq nomi “Ravzat us-safo fi siyrat ul-anbiyo val-muluk val-xulafo” (“والخلافة والملوك الانبياء سيرة في الصفاء روضة”, “Payg’ambarlar, podshohlar va xalifalarning tarjimai holi haqida soflik bog’i”) bo’lib, undan dunyoning yaratilishidan to 1523-yilga qadar Markaziy Osiyo, Yaqin va O’rta Sharq mamlakatlarida bo’lib o’tgan ijtimoiy-siyosiy voqealar keng bayon etilgan. “Ravzat us-safo” muqaddima, yettita jild, xotima va geografik qo’shimchadan tashkil topgan. Mazkur asarning jildlari quyidagi davrlarga bo’lingan:

- 1) Dunyoning yaratilishidan to Sosoniy Yazdigard III (632—651) davrigacha o’tgan tarixiy voqealar;
- 2) Payg’ambar Muhammad s.a.v. va birinchi to’rt xalifa davrida bo’lib o’tgan voqealar;
- 3) O’n ikki imom tarixi; Umaviya va Abbosiya xalifalari;
- 4) Abbosiylar bilan zamondosh bo’lgan sulolalar (asosan Eron, Markaziy Osiyo va Hindistonda);
- 5) Mo’g’ullar, Chingizxon, uning avlodlari, Eron va ba’zi qo’shni mamlakatlarda mo’g’ullar hamda ulardan keyin Amir Temur davrigacha mavjud bo’lgan sulolalar;
- 6) Amir Temur va uning zamonidan to Sulton Abu Sa’id o’limigacha (1469) bo’lib o’tgan voqealar;
- 7) Xondamir ushbu jildni ikki qismga bo’ladi. Biri Sulton Husayn Boyqaro va uning farzandlari, Shayboniixonning tarixi (1523 yilgacha), ikkinchi qismini xotima tarzida yozadi.

Mirxondning ushbu asarining qo’lyozma va bosma nusxalari keng tarqalgan. O’zR FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qo’lyozmalar xazinasida “Ravzat us-safo”ning 90 ta qo’lyozma nusxasi saqlanadi. U Bombay, Tehron, Laknav kabi shaharlarda toshbosma usulida chop etilgan. Uning ayrim parchalari yevropa tillariga ham tarjima qilingan.

Mirxondning ushbu asari Eron va O’rta Osiyo tarixi uchun yevropalik tarixchilar qo’llagan asosiy manbalardan biridir. Asarning 7 jildi Temuriy sulton Husayn Boyqaroning 1438-1506 yillardagi tarixini jam etgan bo’lib, Xondamirning ta’kidlashicha, ushbu asar bizga ma’lum bo’lgan holda Mirxond tomonidan tugatilmagan. Uning yettinchi jildining matni, shubhasiz, Xondamirning qalamiga mansub. Bu fikrni tasdiqlaydigan quyidagi ma’lumotlarga e’tibor berish kifoya: Xondamir “Ma’osir ul-muluk” va “Xulosat ul-axbor”ning xotimasida Mirxondga

to'xtalib, Amir Temur tarixiga oid qog'ozga tushirilgan har xil materiallarga ega bo'lmaganligi uchun, o'z asarini tugata olmagan va agar fursat topilsa, (Xondamir) bobosi asarini tugatishga yo'l topgan; asarda bayon etilgan tarix to 1523-yilgacha yetkazilgan, vaholanki, Mirxond 1498-yili vafot etgan; yettinchi jildning matni Xondamirning "Habib us-siyar"ining III jild 3-qismi ikkinchi yarmi bilan deyarli bir xil.

"Ravzat us-safo" Islom tarixining ensiklopediyasi sifatida qabul etilgan forscha kitob o'laroq, tili, uslubi, hajimi jihatidan o'ziga xos asardir. Katta shuhrat qozongan ushbu asarning ba'zi qismlari ko'p tillarga tarjima qilingan. Asar nafaqat Markaziy Osiyo tarixi uchun, balki Turkiya tarixi uchun ahamiyatli bo'lib, bu borada turk tadqiqotchilar tomonidan bir nechta ishlar amalga oshirilgan. Turk tarixchilaridan Erken Goksu ushbu asardan saljuqiylar tarixini o'rganishda foydalangan asarning shu qismini tarjima qilgan. Asarning uchinchi va to'rtinchi jildlari Turkiyada Rustam poshoning amri bilan Mustafa bin Hasanshoh tomonidan turkchaga tarjima etilgan, Balatizoda Hasan tomonidan qilingan ikkinchi tarjima 1338/1920-yilda Istanbulda chop etilgan.

Yana bir turk tadqiqotchisi Vural Onturk "Ravzat us-safo" asarida Gurlar tarixi masalasiga murojaat etgan. Vural Onturk Xondamirning "Habib us-siyar" asarida Gurlar haqidagi ma'lumotlarni solishtirgan. Unga ko'ra Mirxond gurloar tarixni yozishda ularning saroyida yashagan Juzjoniyning "Taboqoti Nosiriy" asaridan foydalangan. Xondamir esa "Tabaqoti Nosiriy"dan ham, Mirxondning "Ravzat us-safo" asaridan ham foydalangan. Mirxondning bayon etish uslubi Xondamirninikidan batafsilroq ekanligi bilan farqlanadi. Xondamir bayon etish uslubi esa adabiy shakldadir.

Johann August Vullers saljuqiylar tarixini tadqiq etishda ushbu asardan foydalangan. Asarning fors tilidagi tarjimasidan foydalanagan.

Mahmud Hasaniy "Ravzat us-safo" asarida Jaloliddin Manguberdi zikri masalasiga oid risola yozgan. Asarning beshinchi daftarida "Sulton Muhammadning Xorazmshohlik masnadiga o'lturg'oning dostoni" sarlavhasi ostida xorazmshohlar bayoni berilgan. Bu yerda Xorazmshohning boshqa mamlakatlarga qilgan yurishlari bir nechta fasllarda o'z ifodasini topgan. O'zR FA Sharqshunoslik institutida 1813-raqami bilan saqlanayotgan qo'lyozmaning 165b betidan Xorazmshohning o'g'li sulton Sulton Ruknuddin bin Sulton Muhammad Xorazmshohning faoliyati bayon etiladi. Orqasidan yana bir o'g'li G'iyosuddinining ishlari bayon qilingan. 167-betdan Sulton Jaloliddin faoliyatining bayoni boshlanadi. Mirxond o'z asarida Sulton Jaloliddinga boshqa sultonlarga nisbatan ko'proq joy ajratgan. Mahmud Hasaniy ham o'z risolasida

Muhammad Xorazmshohning ba'zi ishlarining bayonidan so'ng Sulton Jaloliddinga bag'ishlangan qismini ko'proq keltiradi.

Luqmon Boymatov esa Temur Malik tarixni tadqiq etishda ushbu asarga murojaat etgan. U "Ravzat us-safo" asari Xo'jand tarixini o'rganishda asosiy manbalardan ekanligi aytib o'tgan. Asar Xo'jandning 1270, 1271, 1273, 1308, 1370 va boshqa yillardagi tarixi haqida muhim ma'lumotlar beradi. Shuningdek, Mirxond Botuxon, Chig'atoyxon, Baroqxon, Muborakshoh, Kayduxon, Mahmud Yalavoch, duvaxon, Amir Bayon, Boyazid Jaloir, Amir Husayn, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Bobur va boshqa ko'plab Xo'jand bilan bog'liq bo'lgan tarixiy shaxslar tarixini o'rganishda muhim manbadir. U Temur Malik haqidagi ma'lumotlar tarixchi Juvayniy ma'lumotlariga asoslanganligini ta'kidlaydi. Xo'jand mudofaasiga bosh bo'lgan Temur Malik haqida bayon etib u haqida bayt keltiradi.

"Ravzat us-safo"ning "jo'g'rofik qo'shimchasi" esa Mirxond va Xondamir tomonidan amalga oshirilgan. Unda turli "ajoyibotlar", ba'zi dengizlar, daryolar, muhim shaharlarning qisqacha ta'rifi bayon etilgan. Asar ustida olib borilgan oxirgi tahrir ham Xondamir tomonidan bajarilgan.

Asar rangin va jozibali tilda, sodda va ravon uslubda yozilgan bo'lib, ilk sahifalardan o'quvchining e'tiborini o'ziga tortib oladi. U juda ko'p ibratli, ta'sirli, qiziqarli voqealarni o'z ichiga oladi. Asar tili va uslubiga ko'ra, o'z davrining bebaho adabiy yodgorligi hisoblanadi.

Mazkur bebaho asarning parchalari fransuz, lotin, shved, nemis va boshqa bir qator tillarga tarjima qilingan. Uzoq vaqt davomida ushbu asar yevropaliklar uchun Sharq tarixini o'rganishda muhim manba bo'lib hisoblangan.

Asarning nodir qo'lyozmalaridan biri Sankt-Peterburgda, D203 raqami ostida Rossiya Fanlar akademiyasining sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda. 1608-yilda ko'chirilgan, 233 varaqdan iborat bu qo'lyozmaning ayrim sahifalariga oltin suvi yugurtirilgan. Mazkur kitobda Tohiriylar davridan to Amir Temurning davlat tepasiga kelishiga qadar bo'lgan voqealar (820 – 1370-yillar) bitilgan.

Mirxondning bu asari juda ko'p mamlakatlar tarixini o'rganishda qimmatli manba bo'lib xizmat qiladi. Kitobning faksimile nusxasi ko'pgina tadqiqotchilar uchun Markaziy Osiyo tarixi, xususan temuriylar davrini o'rganishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Asarning o'zbekchaga tarjimasi Muhammad Rahimxon Feruz davri (1865 – 1873-yillarda hukmronlik qilgan)da mashhur shoir va tarixchilar Shermuhammad Munis (1778 – 1829) va Muhammad Rizo Ogahiy (1809 – 1894) tomonidan amalga oshiriladi. Tarjima ishiga Ogahiy boshchilik qilgan.

Ogahiy asarning uchinchi daftarini va ikkinchi daftarining 2-qismini, Shermuhammad Munis esa birinchi va ikkinchi daftarlarni, Muhammad Nazar oltinchi daftarini, Muhammad Yusuf Rojiy to'rtinchi, beshinchi va yettinchi daftarlarni tarjima qilganlar. Mazkur risolada tabdili berilayotgan qismi ham Muhammad Yusuf Rojiy tomonidan tarjima qilingan.

Asrlar o'tishi bilan sulolalar o'zgardi, davru davronlar almasildi. Shu bois XVI asr birinchi choragidan keyingi voqealarni puxta, asosli yoritadigan asarlarga ehtiyoj sezila boshlagandi. Ammo, bu singari katta hajmli asarni munosib tarzda davom ettirishga har qanday tarixchi olim jur'at eta olmasdi. Biroq, Eronda Qojarlar davrida yashagan mashhur tarixchi, shoir va diplomat Rizoqulixon Hidoyat (1800 – 1871) ana shu ishga qo'l urdi.

Rizoqulixon yoshligidan Qojarlar sulolasining vakili Fathali Shoh (1797 – 1834)ning saroyida xizmat qilgan. O'zining rangin she'rlari bilan shohning nazariga tushgan Rizoquli “amir ush-shuaro” (“shoirlarning amiri”) unvonini olgan.

U sulolaning keyingi vakili Nasriddin Shoh Qojar zamonida ham (1848-1896) saroyda mas'ul vazifalarda ishlagan. Saroy kutubxonasi rahbari bo'lgan, keyinchalik Eronda yangi usuldagi maktab ochib, uni boshqargan.

Rizoqulixon Hidoyat Sharqda forsiy tildagi eng mukammal tarixiy asarlardan biri sanalgan “Ravzat us-safo” asarining davomini yozishga kirishdi. Rizoqulixon Mirxondning bayon uslubini saqlagan holda Safaviylar davridan boshlab, Afsharlar, Zandlar va Qojarlar sulolasi davrida Eron, Xuroson va qisman Movarounnahrda yuz bergan voqealarni o'zining uch jildli asarida yozib qoldirgan. Asar Nasriddin Shohga bag'ishlab bitilgani uchun uning ismiga monand tarzda “Ravzat us-safoi Nosiriy” deb nomlangan.

Rizoqulixon Hidoyat 1851-yilda Nasriddin Qojar (1834 – 1848) ning topshirig'i bilan Xiva xoni Muhammad Aminxon (1845 – 1855) huzuriga elchi bo'lib keladi. Mazkur elchilik asnosida Eron – Xorazm munosabatlariga oydinlik kiritish yuzasidan muzokaralar olib borilgan. Xorazmdagi sayohati haqida u “Saforatnomai Xorazm” (“Xorazm safari kundaligi”) asarini ham yozadi (Mazkur asar 2009 yilda “Yangi asr avlodi” nashriyotida Ismoil Bekchon tarjimasida o'zbek tilida bosilib chiqqan). Mazkur asarida Rizoqulixon Xorazm xaqlining tarixi, madaniyati, turmush tarzi, urf-odat va an'analari, xususan, Xiva xonligida XIX asr boshlaridagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy vaziyat haqida qimmatli ma'lumotlar beradi.

Hidoyat Xiva xonligiga tashrifidan sal avvalroq “Ravzat us-safoyi Nosiriy” asarini yozib tugatgan edi. U mazkur asarning bir nusxasini o'zi bilan olib kelgan. U

Xivada bo'lgan paytida buyuk o'zbek shoiri Muhammad Rizo Ogahiy bilan ham uchrashgani, u bilan ijodiy hamkorlik qilgani ma'lum.

Yuqorida aytilganidek, "Ravzat us-safo"ning o'zbek tiliga tarjimasi Shermuhammad Munis tomonidan boshlangan, bu ishni endilikda Ogahiy davom ettirayotgan edi. Shoir keyinchalik, ushbu yirik tarixiy asarning Rizoqulixon qalamiga mansub qismini ham o'zbekchaga o'giran.

Bugungi kunda Mirxond va Xondamir qalamiga mansub "Ravzat us-safo" asari O'zbekiston fanlar akademiyasining sharqshunoslik instituti, shu bilan birga Ogahiy tarjimasidagi "Ravzat us-safoi Nosiriy" asari ham Rossiya fanlar akademiyasining Sankt-Peterburgdagi Sharq qo'lyozmalari institutida saqlanmoqda.